

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – UMUMMILLIY VAZIFA, HAR BIR VATANPARVAR YURTDOSHIMIZNING VIJDON ISHI

Ulkanova Sadoqat Abduraximovna

Olmalik, KMK AJ IOB tasarrufidagi 20- sonli
G'uncha nomli Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri.

“Korrupsiya – bu jamiyat tanasiga singib ketgan eng xavfli illatdir.

Uni yo‘qotish uchun qonun emas, avvalo vijdon uyg‘oq bo‘lishi kerak.”

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Bejizga o‘z maqolamni muhtaram prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning so‘zlari bilan boshlamadim. Boisi, bu fikrda nafaqat davlat rahbarining ogohlantiruvchi so‘zi, balki har birimiz uyg‘onishimiz, anglashimiz va albatta yuragimiz bilan his qilishimiz uchun aytilgan gaplar deb bilaman. Chunki korrupsiya — bu faqat huquqbuzarlik emas, bu inson vijdoniga qarshi qo‘yiladigan xiyonatdir.

KIRISH

Korrupsiyaga qarshi kurash bugungi kunning dolzarb masalasi,

Korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bir bo‘lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurash dunyoning ko‘plab mamlakatlarini qamrab olmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Xozirgi paytda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash doirasida Adliya vazirligi tomonidan ham bir qator chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, unda adliya tizimiga kiruvchi idoralar va muassasalar faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, Adliya vazirligi huzuridagi yuristlar malakasini oshirish markazida ham korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi 2018-2019 o‘quv yilida yu.f.n., dotsent G.Alimovning «Yuridik shaxslarning

korruptsiya huquqbuzarliklari uchun javobgarligini tartibga soluvchi xalqaro standartlar tizimi» mavzusidagi monografiyasi tayyorlanib chop etildi, i.f.d., professor B.Isroilov (mualliflar jamoasi) tomonidan 2018 yil dekabrda Sankt-peterburg politexnika universiteti olimlari bilan hammualliflikda “Современная система противодействия отмыванию преступных доходов и финансированию терроризма” va “Экономическая безопасность” o’quv qo’llanmalari chop etildi.

O’zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi (Innovatsion rivojlanish vazirligi) granti doirasida G.Alimov va B.Isroilov ham muallifligida “ТТеневая экономика, коррупция, взяточничества: уголовно-проавовая оценка” nomli monografiyasi tayyorlanib chop etishga topshirildi. Shuningdek, Yuristlar malakasini oshirish markaziga muntazam ravishda tahsil olishga kelgan barcha toifadagi tinglovchilar guruhlar uchun, markaz Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasini tomonidan “O’zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari”, Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasini tomonidan “Korrurpsiyaga qarshi kurashning halqaro huquqiy asoslari va xorijiy mamlakatlar tajribasi” mavzularida ma’ruzalar o’qib kelinmoqda.

2019 yil 09 yanvaridagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 5618-sonli, «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida»gi Farmoni yuzasidan Markaz professor-o’qituvchilari respublikamizning barcha mintaqalarida xizmat safarlarida bo’lishib aholi o’rtasida Farmonda nazarda tutilgan boshqa dolzarb vazifalar qatorida korruptsiyaga qarshi kurashishda aholini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalarda yuzdan ortiq ma’ruzalar o’tkazishdi.

Markaz mutaxassislari va professor-o’qituvchilari respublikamiz miqyosida o’tkazilgan korruptsiya mavzusiga oid o’nlab ilmiy amaliy konferentsiya, davra suhbatlarida ma’ruzalar bilan ishtirok etib kelishmoqda. Yuristlar malakasini oshirish markazi jamoasi korruptsiyaga qarshi kurash bo’yicha respublika idoralararo komissiyasining hamda Adliya vazirligini korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha amalga oshirilishi nazarda tutilgan chora-tadbirlar rejalarining tegishli bandlarini

ijrosini ham o'z vaqtida ta'minlab kelmoqda. Yuristlar malakasini oshirish markazi bundan keyin ham respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlarga o'z xissasini qo'shib boradi.

Korrupsiya ildiz otgan jamiyatda adolat yo'qoladi, ishonch so'nadi, halollik qadrsizlanadi. Eng yomoni, bunday jamiyatda bolalar ya'ni kelajak avlod – “tanish-bilish va manfaat”ni odatiy hol sifatida qabul qila boshlaydi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi, jamiyat oldidagi eng kata burchidir.

O'zim ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borayotganligim sababli mazkur soha haqida yozmaslikning iloji yo'q. Korrupsiya bilan kurashish haqida gap ketganda, ko'pchilik faqat davlat boshqaruvi yoki iqtisodiyot tizimini ko'z oldiga keltiradi. Aslida esa, korrupsiyaga qarshi kurash ta'lim tizimining eng quyi bo'g'inidan – maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanishi kerak. Chunki bolalar hayotga, jamiyatga bo'lgan qarashlarini aynan bog'chada boshlaydilar.

Agar tarbiyachi halol bo'lsa, bola ham halollikni o'rganadi. Agar tarbiyachi o'z kasbini vijdonan bajarsa, bola vijdonli inson bo'lib voyaga yetadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom muhit, adolatli tizim va halol mehnat tamoyili ustuvor bo'lsa, bu – kelajakda korrupsiyasiz jamiyatning poydevori bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi – bu shunchaki bolalar yig'iladigan joy emas, bu millat tarbiyalanadigan maskan. Shu bois, bu sohada har qanday korrupsion holat bola ongini zahar bilan to'ldirish bilan barobardir. Masalan, ota-ona tanish-bilish orqali farzandini joylashtirsa, yoki kimdir xizmat evaziga mukofot kutsa – bu allaqachon adolat tamoyilining buzilishidir. Bola esa bunday holatlarni sezmasa ham, o'z ongiga “tanish-bilishlik orqali yo'l topish mumkin” degan noto'g'ri tushunchani anglab ulg'ayadi.

Halol tarbiya – korrupsiyaga qarshi eng kuchli qurol desak ham adashmagan bo'lamiz. Korrupsiyani qonun bilan cheklash mumkin, ammo uni butunlay yo'qotish

uchun halol insonlar jamiyatini tarbiyalash zarur. Halollik esa inson qalbiga bolalikdan singdiriladi.

Bog'chalarda "Halollik kuni", "Vijdon saboqlari", "Men halol bola bo'laman" kabi ma'naviy mashg'ulotlar o'tkazish – bu oddiy tadbir emas, bu korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim bosqichlari bo'ladi. Chunki bola halollikni o'yin orqali, ertak orqali, tarbiyachi orqali o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ishlayotgan har bir tarbiyachi, uslubchi, mudira – bu jamiyatda halollik madaniyatining yoyilishini ta'minlovchi insonlardir. Ularning mas'uliyati faqat bolani ovqatlantirish, uxlashini nazorat qilish yoki mashg'ulot o'tkazish bilan cheklanmaydi. Ular jamiyatini shakllantirayotgan ustozlardir.

Agar bu tizimda adolat ustuvor bo'lsa, korrupsiyaga joy bo'lmasa – o'sha bola vijdonli fuqaro, halol rahbar, pok niyatli jamiyat quruvchisi bo'lib ulg'ayadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bog'chadan boshlangan halollik saboqlari, tarbiyachining pok niyatli harakati, ota-onaning vijdonli yondashuvi – bularning barchasi birlashib, korrupsiyadan xoli jamiyatni barpo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir: A.SH. Bekmurodov: – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 344 b.
2. Berdiyev A.T., Xaydarov M.M., Kuskarov T.R. Korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlik: O'quv qo'llanma.
3. Otajonov A.A. Boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik: O'quv qo'llanma.
4. Sottiyev I.A., Hamrayev S.I. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni huquqiy baholash: O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 72 b.
5. Tojiboyev Q. Mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zgalar mulkini talon-toroj qilganligi uchun javobgarlik. – Toshkent: TDYUI, 2004. – 64 b.

6. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism.
1-jild: Jinoyat to'g'risida ta'limot. OTM uchun darslik.
7. Долгова А. И. Криминология. Учебник для вузов. 2001. С. 347.